

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITILISHIDA  
HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING O'RNI

*Panayeva M.M.*

*Urganch davlat universiteiti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at o'qituvchilarini maktabda tasviriy san'at darslarida haykaltaroshlik san'atini o'rganish orqali mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va samarali o'tishi masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** San'at, badiiy, rassom, haykaltaroshlik, xarakter, monumental, dekorativ, dastgohli, dumaloq, qabariq, loy, plastilin, ijod, barelyef, gorelyef

Панаева М.М.-Ургенчский государственный университет, стажер-преподаватель кафедры «Изобразительное искусство и инженерная графика»

**Аннотация:** В данной статье освещен вопрос о том, как сделать учителей изобразительного искусства более интересными и эффективными за счет изучения искусства скульптуры на уроках изобразительного искусства в школе.

**Ключевые слова.** Художественный, художественный, художник, скульптура, характер, монументальный, декоративный, станковый, круглый, пузырь, глина, пластилин, творчество, барельеф, горельеф.

Panayeva M.M.-Urganch State University, intern-teacher of the Department of "Fine Art and Engineering Graphics"

**Annotation:** This article highlights the question of how to make fine art teachers more interesting and effective by studying the art of sculpture in the fine arts classes at school.

**Key words.** Artistic, artistic, artist, sculpture, character, monumental, decorative, easel, round, bubble, clay, plasticine, creativity, bas-relief, high relief.

San'atning ijobiy va eng muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq, voqea-hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik badiiy obrazlarda ifodalaydi.

Har bir jamiyatdagi san'at erkinlik asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida insonparvarlik, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. San'at xalqning maqsadi, orzu-umidlarini aks ettiradi.

San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtirom bilan qaraydilar. O'zbek rassomlari o'z asarlarida ana shu talab va prinsiplardan kelib chiqqan holda o'zlarini qiziqtirgan, hayajonga solgan narsalar, voqealarni milliylik asosida aks ettirmoqdalar.

Mustaqil O'zbekiston tasviriy san'atining milliyligi undan, avvalo, realistik pozitsiyada turishni, moddiy olamning obyektiv qonuniyatlarini e'tirof etgan holda tasvirlashni talab qiladi. Bu esa rassomdan narsa va voqealarni aniq, o'ziga o'xshatib,

real holda ifodalashni va jamiyatning muhim jihatlarini aniq maqsad sari yo'naltirilgan, badiiy jihatdan yuksak talablarga javob beradigan san'at asarlari yaratishni talab qiladi.

Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri — inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Yoki bir so'z bilan aytganda, V.G.Belinskiy ta'rificha, "San'at — obrazli tafakkurdir"

Haykaltaroshlik san'ati — tasviriy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, odamlar hali rasm chizish va yozishni bilmaslaridan oldin loy va yopishqoq materiallardan odam va hayvonlar tasvirini ishlaganlar. Haykal — voqelikni yoki narsani uch o'lchovda, yorug'-soylar asosida shakl ifodasida ko'rinadigan tasvirlar vositasida fazoda ifoda etadi. Haykallar — ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarga, xonalarga, binolarning peshtoqlariga, devorlarga, medallar va tangalarning sirtiga ishlanadi.

Haykaltaroshlik asarlari mazmuni, mohiyat va harakteriga ko'ra uch turga bo'linadi.

1.Monumental haykaltaroshlik — muhim tarixiy voqealarga, xalq qahramonlari, davlat arboblari, atoqli shaxslar, rassom, yozuvchi, shoirlar, olimlar, fan arboblari va tarixiy shaxslarning xotirasiga bag'ishlab ishlanadi. Bunday haykallar katta, ochiq maydonlarga, ko'cha boshlariga qo'yiladi.

2.Dekorativ haykaltaroshlik — binolar, ko'cha va xiyobonlarni bezash uchun qo'llanadi. Dekorativ haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlikdan 3 jihati bilan, ya'ni birinchidan, kichik hajmda ishlanishi, ikkinchidan, yaqindan ko'rishga mo'ljallanib ishlanishi, uchinchidan, obrazlarning turli psixologik kechinmalari asosida ishlanishi bilan farq qiladi.Binolarning deraza, devorlarini bezatish, favvoralar va stol ustiga qo'yishga mo'ljallangan buyumlar va ularning yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvirlarning hammasi dekorativ haykaltaroshlikka mansubdir.

3.Dastgohli haykaltaroshlik — mustaqil mazmun va sujetga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga kirmaydigan, ko'rgazma zallari, uylar, korxonalar, o'quv-jamoat joylariga qo'yish uchun ishlangan haykallardir. Bunday haykallar kichikroq hajmda bo'lsada, unda inson psixologiyasi va ichki kechinmalari o'z ifodasini topadi. Shu boisdan bunday asarlar g'oyat nozik his-tuyg'ular bilan ifodalangan bo'ladi.

Haykallar tuzilishi va ishlanish uslubiga ko'ra dumaloq (uch o'lchovda ishlangan) va qabariq (relyef) usulida ishlangan turlarga bo'linadi.

Dumaloq haykal balandlik, eni va uzunlik o'lchovida ishlanib, u biron taglik (dastgoh) ustiga qo'yib bajariladi. Qabariq (relyef) haykal faqat bir tomondan u ma'lum bir tekislikka ishlanadi. Relyef usulida ishlanadigan haykallar ham o'z o'rnida uchga bo'linadi. Ular barelyef, gorelyef va kontrelefdan iborat bo'lib, gorelyef — tekislik yuzasidan ancha qabarib chiqqan bo'lsa, barelyefda tasvir yuza tekisligidan biroz (ya'ni ozroq) chiqqan bo'ladi. Kontrelef tekislik yuzasiga biror asbob yordamida o'yib tirnab asarlar yaratiladi.

Mustaqillik yillarida A.Rahmatullayev, L.Ryabsov, I.Jabborov, K.Jabborov, E.Aliyev, N.Bandeladze, P.Podosinnikov, R.Mirtojiyev, K.Norxo'rozov,

U.Mardiyev, A.Hotamov, J.Quttimurodov, A.Boymatov, T.Tojiyev kabi rassomlar tinmay ijod qilmoqdalar. Ular xalqimizning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari, mehnat shijoati hamda o'tmish ajdodlarimizning barhayot siymolarini yuksak mahorat bilan badiiy ifoda etib kelmoqdalar.

Tasviriy san'atni o'rganish rasm chizishdan boshlanganidek, o'quvchi rasm chizish malakasini egallay boshlashi bilan haykaltaroshlik ishlarini ham o'rgatish boshlanadi. Haykaltaroshlik ishlari bo'yicha amaliy ishlar asosan loy va plastilin bilan bajariladi. Loy va plastilin bilan ishlashni muvaffaqiyatli o'zlashtirish ko'p jihatdan ish o'rnini tashkil etishga bog'liq.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilar loy va plastilin bilan ishlashadi. Loy va plastilin bilan bajariladigan barcha ishlar qo'lda bajariladi. Ma'lumki, loy va plastilin bilan ishlash ikki usulda — cho'zish va uzib-yopishtirish bilan amalga oshiriladi. Har bir narsa tasvirini yaratishdan oldin albatta, shu narsaning naturasi diqqat bilan kuzatiladi. Agar shu narsaning loy yoki plastilindan ishlangan tasviri namoyish etilsa, o'quvchining ishi yanada muvaffaqiyatli chiqishi mumkin. Loy bilan ishlangan shakl va tasvirlar bo'yab, maxsus mufel pechlarida quritiladi.

Bugungi kunda madaniy va ma'naviy tarbiya o'z oldiga insonda mavjud voqeylik ijodiy o'zlashtirish qobiliyatiga ehtiyojini yaratishdan tashqari, balki unda go'zallik qonuniga asosan qayta qurish ehtiyojini ham tarbiyalashga qaratilgan. Umumta'lim maktablarining vazifasi estetik tarbiyaning turli metodlari yordamida bolaning aql va vujudiga ta'sir o'tkazib, unda estetik hissiyotlarni paydo qilish orqali uni go'zallikka, tabiat ko'rinishlariga yaqinlashitirish, shuningdek bolaning ijodiy imkoniyatlarini, fikriy faoliyatini rivojlantirib, inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Ijod jarayonida barcha o'quvchilarning haykaltaroshlik nazariy ma'lumotlariga yaxshi ega bo'lishi, ijodiy ishlarni sifatini va samaradorligini oshiradi. Har qanday tasviriy asarni yaratishda kuzatayotgan tasvirni tuzilishini hisobga olish muhim hisoblanadi, chunki narsalarning tuzilishiga ahamiyat berilmasa ijodiy ish sifatli chiqishi mumkin emas. Predmetlar, qushlar, hayvonlar, odamlar ko'rinishini aks ettirishda shuni bilishimiz lozimki, bu mavjudotlar nafaqat tuzilishga balkim shakliga ham egadir. Haykaltaroshlikda ularning shakl va tuzilishini qonun-qoidalar asosida tuzulmasa u holda ko'rinish o'xshamay qolishi ehtimoli mavjud. Buning natijasida haykal tomoshabinda yetarli taasurot qoldirmaydi.

O'quvchi o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi.

“Zamonaviy jamiyat uchun zamonaviy ta'lim” shiori ostida boshlangan mazkur tashabbus doirasida o'quvchilarning aniq va tabiiy fanlarni puxta o'zlashtirishi va olgan bilimni hayotda qo'llay olish imkoniyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Har bir dars bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi va ushbu jarayonda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantirishga urg'u beriladi. O'quvchilar uchun mo'ljallangan elektron darslik va dasturlar, bolalarni muammoni hal etish va zarur xulosaga kelishga undovchi turli o'yin shaklidagi metodik ishlar mazkur xalqaro ta'lim yo'nalishining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga,

o'quvchilarning o'rganadigan fani va o'qituvchisini mustaqil tanlash huquqi borligi, maktab darslarida bolalarning ichki imkoniyati va qobiliyatini yuzaga chiqarishga mo'ljallangan pedagogik usullar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mashg'ulotlarning yanada qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi gaplardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. O'qituvchilarni tasviriy san'at darslarini olib borishda haykaltaroshlik san'ati va shu bilan birga mashg'ulotlarni hayot bilan bog'lab o'tishga o'rgatish. Haykaltaroshlikdan 2-3 ta figurali yaxlit kompozitsiya tuza olishni, loydan yoki plastilindan haykallar ishlashda alohida-alohida, «yaxlit» va «aralash» ishlov berish usullaridan foydalana olishni, mustaqil ravishda butunlay ijodiy mayda haykalchalar tuzadilar, dekorativ bezak ishlarini bajaradilar. Bu vazifalarni bajarishda bolalar asosiy e'tiborni dekorativ kompozitsiyalarni chiroyli ko'rinishda tuzish va rang tuslarini to'g'ri tanlashga qaratadilar.

Tasviriy, amaliy san'at asarlarini badiiy idrok etishni va undan estetik zavqlanish hissini tarbiyalash, bolalarda badiiy kasb-hunarlar haqida tasavvurlari shakllantirishda katta hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.N.Oripov "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" Ilm ziyo Toshkent – 2012
2. S.S.Bulatov "Rangshunoslik" Toshkent-2009
3. S.F.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova "Rangtasvir" Toshkent- "O'zbekiston"-2006
4. Умумий педагогика. Ў.Ж.Йўлдошев тахрири остида (Ўқув қўлланма) Т.: -2017й
5. С.Ф.Абдирасилов. Тасвирий санъат ўқитиш методикаси. Т.: 2002